


Tumanda 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 1 099,6 mlrd. soʻmni yoki oʻsish surʻati 2020 yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etgan.

2021 yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining xoʻjaliklar toifalari boʻyicha taqsimlanishi



Hosil yigʻimi: 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan (dastlabki hisoblash) 46 906 tonna jami don, shundan 44 873 tonna bugʻdoy ishlab chiqarilgan boʻlib, 17 211 tonna kartoshka yetishtirildi (2020 yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga koʻp), 48 929 tonna sabzavotlar (1,5 % ga koʻp) yigʻib olindi, 4 434 tonna poliz (5,1 % ga kam), 8 167 tonn meva va rezavorlar (30,4 % ga koʻp) va 3 027 tonna uzum (0,5 % ga koʻp) yetishtirildi.

Uchqoʻrgʻon tuman statistika boʻlimi.